

LIBOS DIZAYNIDA USLUB VA USLUBLASH

M.Y.Suvonova*Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi:*ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-8269-1931>Email: suvonova8100@gmail.com

Annotatsiya. Dizayn – ijodiy faoliyat turi. Dizayn jamiyatni estetik talablaridir. Dizayn – bu buyumni funksionalligi va ratsional konstruktivligini qonuniy natijasi. Dizayn – bu fan. Dizayn – bu san’at turi. Dizayn - uyg‘unlashtiriladigan soha. Dizayn yordamida insonga ijobiy estetik ta’sir etishi uchun sanoat buyumlarning xossalari o‘zaro moslashtiriladi va ishlab chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Dizayn, san’at, estetika, buyum, libos, romantik uslub, shakl, kiyim, uslub, uslublash, kostyum, loyihalash, bezak, klassik uslub, dengiz uslubi, katak-katak uslub, milliy kiyimlar.

Kirish. Libos dizayni san’ati nafaqat estetik go’zallikni, balki funksionallikni ham o’z ichiga oladi. Uslub va uslublash atamaları libos dizaynining asosiy tarkibiy qismlaridan bo’lib, ular ko’pincha bir-biriga aralashib ketadi, ammo har biri o’ziga xos va muhim ahamiyatga ega. Uslub va uslublash tushunchalarini tushunish, nafaqat dizaynerlar, balki mode va dizaynni yaxshi ko’rganlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, libos dizaynida uslub va uslublash o’rtasidagi farq va ularning dizayn jarayoniga qanday ta’sir ko’rsatishi haqida so’z yuritamiz.

Dizaynning tarixi, insoniyatning tarixi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, inson qayerda bo’lmasin, o’z buyumlarini tashqi ko’rinishiga e’tibor bergan va shu sabab dizaynni paydo bo’lishiga asos bo’lgan. Dizayn – bu san’atning o’zgacha turi bo’lib buyum muhitini yaratadi. Dizayn jamoat va insonning aniq talablari bo’yicha yangi vazifalarni yechishni ko’zda tutadi.

Dizaynda uslub asosiy tushunchalaridan biri bo’lib, jamiyatda ko’proq kostyum tushunchasi bilan bog’liq. Davr uslubi, tarixiy kostyum uslubi, moda uslubi, dizayner uslubi, firma uslubi tushunchalar ham juda ko’p uchraydi.

Uslub – badiiy fikrlashning eng umumiy kategoriyasi; san’atda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g’oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy-plastik o’xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlari, g’oya va qarashlari aks etiladi. Uslub – davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo’ladi. Uslub barcha san’at turlariga o’zgacha ta’sir etadi, uni “davrning katta badiiy uslubi” deb atashadi. San’at tarixida davrga mansub “katta uslublari” birin ketin bo’lgan: Qadimiy Misr, Antik, Roman, Gotik, Renessans, Uyg’onish, Barokko, Rokoko, Modern. Ushbu uslublari kostyum turini, shaklini, proporsiyalarini, qo’llagan matolarini, kiyish usulini belgilagan.

Har bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat:

paydo bo'lishi, avjga yetishi, inqirozga uchrashi. Shuni e'tiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo'lgan: oldin bo'lgan, ayni shu vaqtda hukmronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari. Har bir mamlakatda badiiy madaniyatini rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan aloqaligi bilan bog'liq badiiy uslublar o'ziga xos bo'lgan. Har bir mavsumiy uslublar, yangi uslublarni targ'ibot etadi, dizaynerlar esa o'z uslubini yaratishga intilishadi. Ammo, barcha uslublar tasodifiy paydo bo'lmaydi. Siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar uslublarni shakllanishiga ta'sir etib, uni aktual qiladi. Modali uslublarda insonning siymosi va turmush tarzini o'zgarishi hozirgi zamonda uni o'rni va roli bo'yicha tasavvuri ifodalanadi. Yangi uslublarni paydo bo'lishiga yangi materiallar va ularga ishlov berish usullari ta'sir etadi. Libos dizaynida uslub va uslublash bir-birini to'ldiruvchi, lekin turli vazifalarni bajaruvchi muhim elementlardir. Uslub dizaynning asosiy g'oyasini belgilasa, uslublash esa uni hayotga olib keladi, birlashtiradi va mukammallashtiradi. Ikkalasi ham zamonaviy moda dunyosida doimo o'zgarib, rivojlanib boradi va har bir kishi o'zining shaxsiy uslubini yaratishda ulardan foydalana oladi.

Shu sababli, uslub va uslublash dizaynda ijodiy yondashuv va o'z ifodasi uchun imkoniyat yaratadi. Har bir kiyim va har bir kombinatsiya o'ziga xos bo'lib, o'z dunyoqarashini va estetik go'zalligini ifodalash imkonini beradi.

Uslub va uslublash bir-biriga juda bog'liq bo'lib, har biri o'z rolini bajaradi. Uslub, libosning asosiy shaklini va g'oyasini belgilaydi, uslublash esa bu g'oyani hayotga olib keladi. Masalan, bir dizayner zamonaviy minimalistik uslubda libos yaratishi mumkin, lekin uslublash jarayonida ushbu libosni aksessuarlar, poyafzal va makiyaj bilan to'ldirib, uni yanada zamonaviy va jozibali qiladi.

Shuningdek, uslub va uslublash moda sanoatining tez o'zgaruvchan tabiatiga mos ravishda o'zgarib boradi. Ba'zi uslublar abadiy bo'lib qoladi (masalan, kichik qora ko'ylak yoki klassik trench), ammo ularning qanday uslublash jarayoni yil va mavsumlarga qarab o'zgaradi.

Uslub - bu libosning o'ziga xos xususiyatlari yoki identifikatsiyasini ifodalaydigan atama. Uslub dizaynning umumiy yo'nalishini belgilaydi va uni o'ziga xos qiladi. Har bir libos yoki kolleksiya o'z uslubiga ega, bu uslub esa tarixiy davrlar, madaniy yo'nalishlar, ijtimoiy oqimlar va shaxsiy ifodadan ta'sirlanadi.

Ko'p uslublar orasida klassik uslubni ajratish mumkin: ular uzoq vaqt davomida aktualigini saqlab, modada bo'ladi. Klassik uslub muayyan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: universallik, ko'pfunksiyalik, shakl yaxlitligi va oddiyliigi, inson talablarini qondiradigan. Klassik uslubga, masalan, ingliz, Shanel uslublari kirishi mumkin.

Zamonaviy buyum muxitni badiiy-plastik bir xilligi "dizayn-uslub" deb ataladi. Bu uslub texnikaviy taraqqiyotni o'zlashtirish natijasini namoyon etadi. U yangi mato va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, buyumlarni tashqi ko'rinishini faqat o'zgartirmasdan, insonni hayotiga yangi xossalarni baxsh etadi va buyum va insonni o'zaro aloqasiga ta'sir etadi.

Dizaynda “firma uslubi” degan tushuncha ham bor – bu firmani ishlab chiqargan mahsulotiga mansub. Firma uslubi konkret mualliflar tomonidan yaratiladi va subyektiv xossaga egadir.

“Uslub” tushuncha bilan “uslublash” tushunchasi chambarchas bog‘liq. Yangi san’at asarlari yaratilganda uslublash badiiy usul sifatida qo‘llanadi.

Dizaynda uslublash – bu birinchidan buyumni loyihalashda muayyan uslub xossalarini ongli qo‘llash; ikkinchidan – madaniy namunani ko‘rinarli xossalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri loyihalayotgan buyumga ko‘chirmoq, ko‘pincha bezakda; uchinchidan – tabiiy shakllar yoki muayyan buyumlarga taqlid etib, shartli dekorativ shakl yaratish. Endi esa, bir nechta uslublar haqida gapiradigan bo‘lsak, libos dizaynda eng ko‘p uchraydigan uslub bu klassik uslubdir.

Klassik odmi, ishbilarmon, elegant uslub bo‘dib, modaga deyarli sig‘inmaydigan, turg‘un vaqt davomida tanlangan, deyarli o‘zgarmaydigan uslub. Klassik uslub – chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko‘zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e’tiborni o‘ziga sifati bilan tortadi.

Katak–katak uslubi. Katak–katak juda tez moda kiradi va ketadi, ammo doimo qaytadi. Katak–katakni uzoq hayoti klassik uslubga kiritishga imkon beradi.

Romantik uslub – bu fantaziya, izlanish, tarixiy kostyumga intiladi va undan shakl, bichim va dekorativ bezak o‘zlashtiriladi. Romantik libos qomadni go‘zalligini va ayollarning husnini namoyon etishi lozim.

Dengiz uslubi. Bu uslub ilk bor bolalar kiyimlarida paydo bo‘lgan. Matros kiyimini eslatadigan bolalar kiyimlari juda ifodali va qulay bo‘lgan. So‘ng bu detallar ayollar modasiga kirgan. Dengiz uslubi bugun ham o‘z muhimligini yo‘qotmadi. Bu uslubni farqlaydigan detallari kvadrat shakldagi katta yassi yoqa va oq–ko‘k tasmalar. Odatda bu uslubda yozgi kiyim yaratiladi.

Bugungi zamonaviy o‘zbek liboslarda esa milliyligimizga alohida urg‘u berilmoqda. Liboslarimizda millatimiz tarixi, yashash tarzi, milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimiz va madaniyatimiz aks etgan zamonaviy va milliy kiyimlarimiz dovrug‘i butun olamda namoyon etilmoqda. Kostyum dizaynda aynan ushbu uslublar bilan yaratilayotgan liboslarimiz bugungi kunning eng go‘zal liboslari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xasanboyeva G.K. Libos dizayni. Ma’ruza matni -T.: TTESI, 2011.
- 2.X.X.Kamilova, N.A.Isaxojayeva, K.R.Fuzailova “Kostyum kreativ grafikasi”2017.
- 3.Xasanboyeva G.K. , Krimova O.I. “Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash” T. “O‘qituvchi”, 1990. TTESI.
- 4.Xasanboyeva G.K. “Kompozitsiya asoslari” Ma’ruza matni.